https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Ergashova Muxlisa Azizjon qizi

Oila va gender ilmiy tadqiqot insituti

1-bosqich tayanch doktoranti

muxlisaergashova816@gmail.com

O‘SMIRLARDA LIDERLIK XUSUSIYATLARI NAMOYON BO‘LISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda har bir jamiyatning taraqqiyot darajasi, avvalo, ta’lim sifatiga, yoshlarning ilmiy salohiyati va intellektual darajasiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Jahon miqyosida kechayotgan murakkab iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy jarayonlar, yosh avlodni faollik, vatanparvarlik va yangiliklarga ochiqlik ruhida tarbiyalash zaruratini kuchaytirmoqda. Buning eng samarali yo‘li- ularning liderlik salohiyatini erta aniqlash va maqsadli rivojlantirishdir. Ayniqsa, o‘smirlarda liderlik xususiyatlari shakllanishi va rivojlanishi keyingi avlodning barkamol va o‘z fikriga ega shaxs bo‘lib shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ushbu maqolada o‘smirlarda liderlik xususiyatlari namoyon bo‘lishiga ta'sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash, ularni tizimli tahlil qilish va amaliyotga tadbiq etish bosh maqsad hisoblanadi. Bundan tashqari o‘smirlarda liderlik yanada shakllanishi uchun bir qator tavsiyalar ham ishlab chiqildi.

KALIT SO‘ZLAR

O‘smirlik, lider, liderlik, muloqot, tashkilotchilik, o‘z-o‘zini baholash, kommunikatsiya, adekvat baho berish.

ANNOTATION

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Today, the level of development of each society depends, first of all, on the quality of education, the scientific potential and intellectual level of young people. Complex economic, political and social processes taking place on a global scale increase the need to educate the younger generation in the spirit of activity, patriotism and openness to innovations. The most effective way to do this is to identify and purposefully develop their leadership potential early. In particular, the formation and development of leadership qualities in adolescents is of great importance in shaping the next generation as well-rounded and self-sufficient individuals. Therefore, the main goal of this article is to identify the factors influencing the manifestation of leadership qualities in adolescents, to systematically analyze them and put them into practice. In addition, a number of recommendations have been developed for the further development of leadership in adolescents.

KEYWORDS

Adolescence, leader, leadership, communication, organization, self-assessment, communication, adequate assessment.

АННОТАЦИЯ

Сегодня уровень развития каждого общества зависит, прежде всего, от качества образования, научного потенциала и интеллектуального уровня молодёжи. Сложные экономические, политические и социальные процессы, происходящие в глобальном масштабе, повышают потребность в воспитании молодого поколения в духе активности, патриотизма и открытости к инновациям. Наиболее эффективный способ сделать это — выявить и целенаправленно развивать их лидерский потенциал на раннем этапе. В частности, формирование и развитие лидерских качеств у подростков имеет большое значение для формирования следующего поколения как всесторонне развитых и самодостаточных личностей.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Поэтому главная цель данной статьи — выявить факторы, влияющие на проявление лидерских качеств у подростков, систематически проанализировать их и применить на практике. Кроме того, был разработан ряд рекомендаций по дальнейшему развитию лидерских качеств у подростков.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Подростковый возраст, лидер, лидерство, коммуникация, организация, самооценка, коммуникация, адекватная оценка.

KIRISH. Biz o‘smirlarda liderlik xususiyatlari namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psxiologik omillari sifatida muloqot, tashkilotchilik qobiliyati va o‘z-o‘zini baholashni kiritishimiz mumkin. Chunki ushbu omillar liderlik xususiyatlari shakllanishi va rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

O‘smirlik davrida yetakchi faoliyatlardan biri muloqot hisoblanadi. Bilamizki, muloqot faqat insonlarga xos bo‘lgan jarayondir. Kishilarda faoliyat jarayonida bir-birlari bilan muloqotda bo‘lish ehtiyoji tug‘iladi. O‘zaro muloqot esa, tabiiyki, kishilik jamiyati vujudga kelishining eng asosiy unsuri hisoblanadi.Muloqot insoniy faoliyatning ajralmas tarkibiy qismidir. U kishilar o‘rtasida hamkorlikdagi faoliyat zarurati bilan yuzaga keladigan va axborot almashinuvi orqali rivojlanadigan ko‘p qirrali jarayondir.Muloqotni ko‘pincha kommunikatsiya bilan birlashtirib yuborishadi. Aslida esa bu ikki tushuncha o‘rtasida muhim farq mavjud. Kommunikatsiya – bu axborot almashinuvining umumiy shakli bo‘lib, u tirik va tirik bo‘lmagan tabiatdagi barcha tizimlar o‘rtasida sodir bo‘ladi. Masalan, hayvonlar orasidagi signallar, texnik qurilmalar orqali uzatiladigan axborotlar ham kommunikatsiya hisoblanadi. Muloqot esa faqat insonlarga xos hodisadir, chunki u ongli va maqsadli harakat, ijtimoiy-tarixiy tajriba almashinuvi va shaxslararo munosabatlar vositasidir.[1] Muloqot funsiyalari quyidagilar;

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

1.Informatsion-kommunikativ funksiya – bu ham turli xil ma’lumotlar, xabarlarni verbal va noverbal shaklda olish orqali farqlanadi. Noverbal kommunikatsiya bir necha shakldan iborat. Masalan,kinetika (imo-ishora, mimika, pantomimika); paralingvistika (ovoz lokalizatsiyalari, pauzalar); kabilar.

2.Regulatsion-kommunikativ funksiya (boshqaruv-kommunikativ vazifa)-bu funksiya muloqot ishtirokchilarining bir-birining xatti-harakatlariga ta’sir ko‘rsatish, ularni boshqarish va yo‘naltirish imkonini beradi.

3.Affektiv-kommunikativ funksiya (hissiy-kommunikativ vazifa)-Ushbu funksiya insonlarning hissiy holatini ifodalash, tushunish va boshqarishga qaratilgan. Muloqot davomida odamlar o‘z his-tuyg‘ularini namoyon etadi, boshqalarning emotsiyalarini sezadi va ularga nisbatan munosabat bildiradi. Bunday aloqalar o‘zaro hissiy yaqinlikni, ishonchni va tushunishni shakllantirishga yordam beradi. Ayniqsa, o‘smirlik davrida bu funksiya muhim bo‘lib, tengdoshlar bilan emotsional bog‘lanish shaxsiy rivojlanish va o‘zini anglashda katta rol o‘ynaydi.[2]

Yana bir liderlik xususiyatlaridan biri namoyon bo‘lishiga ta’sir etuvchi omillardan biri tashkilotchilik qobiliyatidir. Tashkilotchilik qobiliyati – bu birinchidan, jamoani uyushtira olish, va jamoani jipslashtira olish: ikkinchidan; o‘zini shaxsiy ishini to‘g‘ri tashkil qila olish qobiliyatidir. O‘z ishini tashkil qila bilish deganda, uning o‘z ishini to‘g‘ri rejalashtirib, uni nazorat qila olish nazarda tutiladi. Boshqarish bevosita jamoaga qaratilgan bo‘lib, uning psixologik natijasi o‘zlikka nisbatan hurmat, o‘zlikni anglash, qadrlash kabilarni vujudga keltiradi. ‘‘Tashkilotchilik faoliyati amalda obyekt (boshqariluvchi) va subyekt (boshqaruvchi) mavjud bo‘lgan paytda, pirovard maqsadni amalga oshirish jarayonida kechadi.[3]

Shuningdek, muhim masalalardan biri o‘smirlarning o‘z-o‘zini baholash masalasidir. Bugungi kunda ta’lim jarayonining markazida shaxs sifatida

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

rivojlanayotgan o‘quvchi turadi. O‘quvchi-yoshlar nafaqat bilim oluvchi, balki o‘zini anglash, o‘z fikrini erkin ifoda etish, shaxsiy imkoniyatlarini kashf etish jarayonining faol ishtirokchisidir. Bu davrda o‘quvchilarning shaxsiy taraqqiyoti, ijtimoiy ko‘nikmalari va psixologik barqarorligi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zini anglash, o‘z-o‘zini baholash va o‘z ustida ishlashga bo‘lgan ehtiyoj aynan o‘smirlik yoshidan boshlab kuchayadi.[4] O‘smirlik davrida o‘smirning o‘z o‘ziga o‘zi, imkoniyatlari, qobiliyatlari haqidagi umumlashgan va nisbatan turg’un tasavvurlari deb belgilanadi.Psixologiyada o‘z-o‘ziga bahoning uchta turi ajratiladi: 1. O‘z-o‘ziga past baho berish. 2. O‘z-o‘ziga adekvat baho berish. 3. O‘z-o‘ziga yuqori baho berish. O‘smirlar o‘z o‘ziga past baho berishi bu – ko‘pincha atrofdagilarning unga nisbatan qo‘yayotgan talablarining o‘ta yuqoriligi, tanqidlar, oilaviy muhit va holatning xususiyatlari, ularni uddalay olmaslik, turli xil e’tirozlarning doimiy tarzda bildirilishi, ishda, o‘qishda va muomala jarayonidagi muvaffaqiyatsizliklar oqibatida hosil bo‘lishi mumkin. [5]

METODLAR: Bizning tadqiqotimiz o‘smirlar orasida amalga oshirildi. Xususan Toshkent shahridagi 1-maktab 7-sinf va 298-maktab 8-sinf o‘smirlari tanlab olindi. Tadqiqotimiz o‘smirlarda liderlik darajalarini aniqlash va unga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlashdan iborat. Bu tadqiqotda jami 150 nafar sinaluvchi ishtirok etdi. Ulardan yigitlarning soni 74 nafar, qizlarning soni esa 76 nafarni tashkil etadi.Tadqiqotimiz ishtrokchilarning 50,7 % ni qizlar va 49,3 % yigitlar tashkil etadi. Sinaluvchilar yoshi haqida ma’lumot beradigan bo‘lsak,12-yoshli o‘smirlar 22 ta foiz hisobida (14,7%), 13-yoshli o‘smirlar 36 ta foiz hisobida (24 %), 14-yoshli o‘smirlar 62 ta foiz hisobida (41,3 %), 15-yoshli o‘smirlar 30 ta foiz hisobida (20 %) sinaluvchilar ishtirok etishdi. Sinaluvchilarining sinfi haqida ma’lumot beradigan bo‘lsak, 7-sinf o‘quvchilari 50 nafar ya’ni 33,33 %ni tashkil etadi. 8-sinf o‘quvchilari 50-nafar 33,3 % ni tashkil etadi. 9-sinf o‘quvchilari ham 50 nafar 33,3 % ni tashkil etdi. Ya’ni uchala tanlanmalarimiz ham teng miqdorda taqdqiqotimiz doirasida qatnashishdi. Turli sinf va yosh tanlaganimizdan maqsad ularning orasida sezilarli farq

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

kuzatilishi mumkin. Sinaluvchilarning oilada nechinchi farzandligi bo‘yicha ma’lumot beradigan bo‘lsak, 1-farzandlar soni 62 ta foiz hisobida (41,3%), 2-farzandlar soni 40 ta foiz hisobida (26,7 %), 3-farzandlar soni 29 ta foiz hisobida (19,3 %), 4-farzandlar soni 17 ta foiz hisobida (11,3 %) va 5-farzandlar soni 2 ta foiz hisobida (1,3 %) tashkil etadi. Oilada har bir farzandlar ham liderligi bilan bir-biridan farq qilishi mumkin. Chunki oiladagi har bir farzand individual bo‘lib, bir-biridan xarakter-xususiyatlari bilan farq qiladi. Tadqiqotimizdan maqsad liderlik shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy va psixologik omillarni aniqlash edi. Shu sababdan 4 ta metodika tanlagan edik. Birinchi metodika albatta o‘smirlarda liderlik xususiyatlari qay darajada shakllanganligini aniqlashga qaratilgan edi. Ikkinchi metodika o‘smirlarning o‘z-o‘zini baholash darajasini aniqlashga qaratilgan edi. Uchinchi metodika muloqotchanlikni qay darajada shakllanganligi aniqlashga va to‘rtinchi metodika tashkilotchilik qobiliyatlarini aniqlashga qaratilgan metodikalar edi.

NATIJALAR. Biz tadqiqotimizda liderlik shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarni o‘rgandik. Sinaluvchilarning jins va yosh xususiyatlariga tafovutlar aniqlanmadi. Ko‘rsatkichlar bir-biriga juda yaqin hisoblanadi. Lekin sinflar o‘rtasidagi va oiladagi nechinchi farzandligiga ko‘ra tafovutlar aniqlandi. Masalan, o‘z-o‘zini baholash metodikasi bo‘yicha sinaluvchilarning sinflar o‘rtasida tafovutlar aniqlandi. Ya’ni natijalarga ko‘ra 7-sinflarning ko‘rsatchiklari 8-9-sinflar ko‘rsatkichlaridan yuqori natijani qayd etdi. O‘z-o‘zini baholash 8-9-sinflardan ko‘ra 7-sinflarda yuqori hisoblanadi. Bundan tashqari Sardor metodikasi(Liderlik darajasi) shkalasiga ko‘ra 3-4 farzandlarda liderlik darajasi yuqori ekanligini qayd etdi. 1-2 farzandlarda esa liderlik darajasi quyi ekanligini ko‘rsatdi.

Bog‘liqlik qonuniyatida esa 2 ta shkalalar o‘rtasida bog‘liqlik kuzatildi. Natijalar tahliga ko‘ra liderlik darajasi shkalasi va tashkilotchilik darajasi shkalasi o‘rtasida 99% ishonch darajasida o‘zaro musbat aloqa kuzatildi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

(r=0,241;p<0,01).Ya'ni liderlik yuqori rivojlangan shaxslarda tashkilotchilik qobiliyati yuqori, liderlik quyi rivojlangan shaxslarda tashkilotchilik ham quyi daraja bo'larkan.Bundan tashqari muloqotchanlikning umumiy darajasini aniqlash shkalasi va o'z-o'zini baholash shkalasi o'rtasida 99% ishonch darajasida o'zaro musbat aloqa kuzatildi (r=0,244;p<0,01). Ya'ni muloqotchanlik yuqori rivojlangan shaxslarda o'z -o'zini baholash yuqori, muloqotchanlik quyi rivojlangan shaxslarda o'z-o'zini baholash quyi ekanligi natijalarda qayd etildi.

MUHOKAMA VA XULOSA. Yuqorida keltirilgan natijalarga asoslanib quyidagi tavsilarni berish mumkin:

1.O'smirlarning psixologik va ijtimoiy rivojlanishida liderlik qobiliyatlarining shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish va bu jarayonda yuzaga keladigan psixodiagnostik masalalarni chuqur tahlil qilish zarur. Liderlik xususiyatlarini aniqlash va rivojlantirish uchun maxsus metodikalarni ishlab chiqish.

2.Maktab psixologi tomonidan o'smirlarning liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim bo'lgan ijtimoiy va psixologik omillarni aniqlash va ularni maktabda, oilada va jamiyatda qo'llashda samarali yondashuvlar ishlab chiqish zarur. Ota-onalar, o'qituvchilar va boshqa ta'lim muassasalari uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish, o'smirlarning liderlik sifatlarini rivojlantirishda o'zaro hamkorlikni kuchaytirish, shuningdek, yoshlarning jamiyatdagi ijtimoiy mas'uliyatini oshirishga yordam beradi.

3.O'quvchilarda liderlik xususiyatlarini shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik muhitni yaratish. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, liderlik xususiyatlarining shakllanishiga sinf muhitining bevosita ta'siri mavjud.

4. Psixologik xizmat faoliyatida farzandlik tartibini hisobga olgan individual yondashuvlarni joriy etish: Tadqiqotda 3-4-farzandlarda liderlik xususiyatlari yuqoriroq darajada shakllangani aniqlangan. Shu bois 1–2- farzand

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

bo‘lgan o‘quvchilar bilan motivatsion va psixologik qo‘llab-quvvatlash ishlari kuchaytirilishi zarur.

5. Maktab o‘quv dasturiga muloqot madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan darslar kiritish. Bu ularga yanada ijtimoiy munosabatlarga kirishishiga va muloqot ko‘nikmalarini oshirishiga yordam beradi Liderlik xususiyatlari yanada shakllantirish uchun ota-onalar tomonidan oilaviy raqobatbardosh va sog‘lom muhit tashkil etish

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Krutetskiy V.A. Pedagogik psixologiya asoslari. T., “O‘qituvchi”, 1976

2.Mahmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. – T.: “Akademiya”, 2006.241bet.

3.Hamidov Akmal Amrulloyevich., O‘smir yoshdagi o‘quvchilarda o‘z-o‘zini adekvat baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishda pedagogik hamkorlikning imkoniyatlari: International scientific-practical conference, November 13, 2023

4.Taxoxov B.A. Zamonaviy “qiyin o‘smirlar”ning psixologik va pedagogik xususiyatlari // Seriya: Pedagogika, Psixologiya. – Piter: 2018. No 3.

5.M. Maxsudova. Muloqot psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. — T.: ‘‘Turon-Iqbol’’ nashriyoti, 2006.— 5-8 b.